| <i>Xamdamon Usmon Ergashevich</i>                                                                                                                                                           |     |
| Boshlang'ich ta'limda ona tili darslarini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil qilish masalasi .....                                                                                  | 490 |
| <i>Adizova Nodira Baxtiyorovna, Ibotova Shahnoza Shuxrat qizi</i>                                                                                                                           |     |
| Malaka oshirish tizimida sifat menejmenti: "sun'iy intellekt" va "boshqaruv mexanizmi" tushunchalarining ierarxik bog'liqligi.....                                                          | 494 |
| <i>Allanazarova Maftuna Qobul qizi</i>                                                                                                                                                      |     |
| "Uglevodorodlar" bo'limini o'qitishni axborot kommunikatsion texnologiyalar vositasida takomillashtirish metodikasi (umumiy o'rta ta'lim maktablari 10-sinflar o'quvchilari misolida) ..... | 498 |
| <i>Babajanova Nilufar Pirnafas qizi</i>                                                                                                                                                     |     |
| Axborot texnologiyalari vositasida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish darajasini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari.....                       | 506 |
| <i>Junaydullayev Oxunjon Kaxorjon o'g'li</i>                                                                                                                                                |     |
| Bo'lajak o'qituvchilarni aralash ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlashning pedagogik xususiyatlari va tarkibiy komponentlari .....                                             | 510 |
| <i>Kabirova Zarifa Muqaddamovna</i>                                                                                                                                                         |     |
| Maktabgacha ta'limda qoraqalpoq ertaklari orqali bolalar tilini rivojlantirishning kognitiv asoslari .....                                                                                  | 516 |
| <i>Matjanova Gulzada Annabayevna</i>                                                                                                                                                        |     |
| Issiq sharoitiga marafonchilar va futbolchilarning fiziologik moslashuvi xususiyatlari .....                                                                                                | 520 |
| <i>Nurbayev Baxtiyor Shirinovich</i>                                                                                                                                                        |     |
| Xorijlik talabalarning tinglab tushinishdagi qiyinchiliklarini metakognitiv strategiyalar orqali bartaraf etish ..                                                                          | 524 |
| <i>Odiljonova Nilufarxon Avduvahob qizi</i>                                                                                                                                                 |     |
| O'qituvchilarda kasbiy so'nish va psixologik stress holatlarini keltirib chiqaruvchi psixologik-pedagogik omillar .....                                                                     | 528 |
| <i>Usmonov Salaxdin Alikulovich, Ortiqova Malika Odiljon qizi, Xolbekova Dinora Faxriddin qizi</i>                                                                                          |     |
| Umumta'lim maktablarida texnologik kompetensiyalarni rivojlantirishning amaldagi holati va metodik muammolari .....                                                                         | 533 |
| <i>Qurbonmurotov Eldor Abdusaidovich</i>                                                                                                                                                    |     |
| Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda raqamli texnologiyalar va ularning imkoniyatlari .....                                                                                           | 538 |
| <i>Xujaniyozova G. S.</i>                                                                                                                                                                   |     |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy onglik darajasini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari (oilaviy muhit misolida) .....                                                              | 543 |
| <i>Yakubov Odiljon Tolibjon o'g'li</i>                                                                                                                                                      |     |
| Raqamli texnologiyalar davrida o'zbek tilining qo'llanilish istiqbollari .....                                                                                                              | 549 |
| <i>Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna</i>                                                                                                                                                      |     |
| Обучение образованию и употреблению форм числа имён существительных в школьном курсе русского языка .....                                                                                   | 553 |
| <i>Идиева Гульмира Изомовна</i>                                                                                                                                                             |     |
| Yosh sportchilarda biokimyoviy ko'rsatkichlarning funksional tayyorgarlikka ta'siri.....                                                                                                    | 556 |
| <i>Alimova Nasiba Adxamovna</i>                                                                                                                                                             |     |
| Lingvistik kompetensiya: nazariy asoslari va mazmuni .....                                                                                                                                  | 566 |
| <i>Eshbekova Dilnoza Ibraimovna</i>                                                                                                                                                         |     |
| Jismoniy tarbiya tizimida sport o'yinlarining o'rni ahamiyati .....                                                                                                                         | 569 |
| <i>Muxamedjanov Umidulla Fayzullayevich</i>                                                                                                                                                 |     |
| Delinkvent xulq-atvorning psixologik va ijtimoiy omillari, prevensiyasi va intervensiya usullari.....                                                                                       | 572 |
| <i>Xolmurotova Shoxista Mirzaliyevna</i>                                                                                                                                                    |     |
| Matematika fanini o'qitishda raqamli texnologiyalar va dasturiy ta'minotlarning o'rni .....                                                                                                 | 577 |
| <i>Sobirova Dinora Umidjon qizi</i>                                                                                                                                                         |     |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlari maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini maktab ta'limiga ijtimoiy moslashuvchanligini rivojlantirish .....                                         | 583 |
| <i>Akramova Dildora Ergashboy qizi</i>                                                                                                                                                      |     |
| O'smirlarning kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishda oila-maktab hamkorligining ijtimoiy-pedagogik mexanizmlari.....                                                                       | 587 |
| <i>Xudoyberdiyeva Marhabo Abduqahhorovna</i>                                                                                                                                                |     |
| Bridging Jadid Reformism and 21 <sup>st</sup> -Century Pedagogy: The Structural Framework of Abdulla Avloni's Educational Legacy .....                                                      | 591 |
| <i>Lola Rakhmonovna Djurakulova, Karina Eduardovna Bushevskaya</i>                                                                                                                          |     |
| Yengil atletikada ko'p yillik sport mashg'ulotlarini boshqarishning tashkiliy-metodik asoslari.....                                                                                         | 595 |
| <i>Hakimova Mushariybonu Hamidovna, Tursunpolatova Ziyoda Jahongir qizi</i>                                                                                                                 |     |
| Pedagogik oliy ta'lim muassasalari talabalari intellektual salohiyatini rivojlantirishda pedagogik artistizmning didaktik imkoniyatlarini takomillashtirish .....                           | 599 |
| <i>Karriboyeva Lobarxon Fayzulla qizi</i>                                                                                                                                                   |     |
| Chidamlilik tushunchasi, chidamlilikning turlari, ko'rsatkichlari va uni rivojlantirish metodlari .....                                                                                     | 603 |
| <i>Shaalimov Muxtorsha Atxamovich</i>                                                                                                                                                       |     |
| X, Y va Z avlodiga mansub ayollarda qadriyatlar shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari .....                                                                                         | 607 |
| <i>Feruz Abduraxmonova</i>                                                                                                                                                                  |     |
| Musiqqa terminlarini izohli lug'atlarda berishning zamonaviy ilmiy-amaliy asoslari.....                                                                                                     | 612 |
| <i>Abdialimova Maxfuza Safarboy qizi</i>                                                                                                                                                    |     |



|                                                                                                                                                              |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Ta'lim muhiti, pedagoglar malakasi va o'quv dasturlarini baholash .....                                                                                      | 617 |
| <b>Mutalova Dilnoza Abdurashidovna</b>                                                                                                                       |     |
| The Role of Interactive Technologies in Developing the Cognitive Activities of<br>Future Foreign Language Teachers .....                                     | 621 |
| <b>Shukurov Uktam Bakhodirovich</b>                                                                                                                          |     |
| Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilar ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasining empirik xususiyatlari.....                                                | 625 |
| <b>Ikmattullayev G'ayrat Zokirovich</b>                                                                                                                      |     |
| Oliy ta'lim muassasalarining bo'lajak o'qituvchilarini ijtimoiy pedagogik faoliyatga kasbiy<br>metodik tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari .....      | 632 |
| <b>Ali Tursaotov</b>                                                                                                                                         |     |
| Kognitiv yondashuv asosida bo'lajak ijtimoiy ish xodimlarida sanogen refleksiyaning rivojlantirish modeli .....                                              | 636 |
| <b>Ismailov Murodulla Kaxramonovich</b>                                                                                                                      |     |
| Rang konseptlarini o'qitishga oid xalqaro tadqiqotlar tahlili: ilmiy bo'shliqlar va metodologik istiqbollari .....                                           | 643 |
| <b>Arabova Gulnur Yuzboy qizi</b>                                                                                                                            |     |
| Sun'iy intellektning inson tafakkur jarayonlariga psixologik ta'siri.....                                                                                    | 648 |
| <b>Usmonov Sherzod Axmadjonovich, Raxmonov Sa'natjon Baxtiyorovich</b>                                                                                       |     |
| Milliy cholg'u ansambllari orqali o'quvchilar musiqiy dunyoqarashini shakllantirish .....                                                                    | 651 |
| <b>Dadamirzayeva Gulshanoy To'lanjon qizi</b>                                                                                                                |     |
| Raqamli kompetensiyalar tizimi va talaba mustaqilligining pedagogik-psixologik ko'rsatkichlari .....                                                         | 656 |
| <b>Qahramonova Xumora Qahramonovna</b>                                                                                                                       |     |
| Oliy ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini shakllantirish mexanizmlari .....                                                          | 661 |
| <b>Ochilova Gulnoza Odilovna</b>                                                                                                                             |     |
| O'zlashtirish psixologiyasining rivojlanish bosqichlari: psixometrik yondashuvdan<br>raqamli ta'lim muhitigacha .....                                        | 665 |
| <b>Mo'minxo'jayeva Zuhra Alimjon qizi</b>                                                                                                                    |     |
| GeoGebra yordamida ko'pyoqlilarni o'qitish metodikasi.....                                                                                                   | 672 |
| <b>Pirlepsov Umrbek Baxtiyor o'g'li</b>                                                                                                                      |     |
| Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi dzyudochilarning umumiy jismoniy tayyorgarligini<br>rivojlantirish usullari .....                                     | 675 |
| <b>Jumanova Iroda Shokirjon qizi</b>                                                                                                                         |     |
| O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy integratsiya va tibbiy korreksiyalash istiqbollari .....                                               | 678 |
| <b>Jurayeva Mushtariy Muxaydinovna</b>                                                                                                                       |     |
| Oila hamkorligida koxlear implantli bolalarni inklyuziv ta'limga tayyorlash .....                                                                            | 684 |
| <b>Atamirzayeva Zebunniso Baxtiyor qizi</b>                                                                                                                  |     |
| Bulutli texnologiyalar va ularning ta'lim jarayonidagi o'rni .....                                                                                           | 689 |
| <b>Shirinov Feruzjon Shuxratovich, Yuldasheva Gulsanam Odiljon qizi</b>                                                                                      |     |
| O'zbek tilida axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid neologizmlarning shakllanishi<br>va qo'llanish xususiyatlari.....                                 | 692 |
| <b>Bektosheva Mehinbonu Abdumalik qizi</b>                                                                                                                   |     |
| Ota-onalar va mahalla faollarining pedagogik kompetensiyasini rivojlantirishning zamonaviy mexanizmlari..                                                    | 695 |
| <b>Abdurazoqova Marg'uba Muxammad qizi</b>                                                                                                                   |     |
| Forming Emotional Intelligence of Primary School Students Through Extracurricular Activities .....                                                           | 700 |
| <b>Yusupova Diloromxon</b>                                                                                                                                   |     |
| Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talaba qizlarining gipodinamiyaga qarshi jismoniy<br>tayyorgarligini oshirishda aerobik fitnes uslubiyati.....             | 704 |
| <b>Ziyatov Muhammad Namazovich</b>                                                                                                                           |     |
| Using Innovative Educational Technologies in Organizing Laboratory Classes in Zoology .....                                                                  | 708 |
| <b>Saidova Dilnavoz Bakturdiyevna</b>                                                                                                                        |     |
| Konnotativ mohiyatli o'quv materiallarini samarali o'zlashtirish usullari.....                                                                               | 713 |
| <b>Xoshimova Dilnoza Rixsiboyevna</b>                                                                                                                        |     |
| Boks mashg'ulotlarida harakat ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik asoslari.....                                                                      | 716 |
| <b>Rustamova Zuhro Sanjar qizi</b>                                                                                                                           |     |
| Individual yondashuv asosida ko'zi ojiz o'quvchilarning kommunikativ kompetentligini<br>rivojlantirish metodikasi .....                                      | 721 |
| <b>Abdullayev Oybek Alisher o'g'li</b>                                                                                                                       |     |
| Kasbiy ta'lim o'quvchilarining o'quv-bilish kompetentligini kredit-modul ta'limi asosida<br>shakllantirish metodikasini takomillashtirish .....              | 728 |
| <b>Sharipov Abror Anvar o'g'li</b>                                                                                                                           |     |
| Diqqat yetishmovchiligi va giperaktivlik sindromi rivojlanish tarixida<br>"minimal miya disfunktsiyasi" tushunchasi.....                                     | 731 |
| <b>Otbasarova Umida Mexmonovna, Inogamova Rano Bahodirovna</b>                                                                                               |     |
| Abdulla Avloniy pedagogik merosida fikr tarbiyasi va uning boshlang'ich sinf o'quvchilarining<br>tafakkurini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari..... | 734 |
| <b>Abduraxmonova Munira</b>                                                                                                                                  |     |

# ABDULLA AVLONIY PEDAGOGIK MEROSIDA FIKR TARBIYASI VA UNING BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDAGI PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Abduraxmonova Munira

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek ma'rifatparvarlik harakati va jadidchilikning yorqin namoyandasi Abdulla Avloniyning pedagogik merosida fikr tarbiyasi masalasi tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari hamda boshqa pedagogik va adabiy asarlari asosida uning aql-idrok, mustaqil fikrlash va tafakkur tarbiyasiga oid g'oyalarni aniqlash, shuningdek, ushbu g'oyalarning zamonaviy boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishdagi amaliy imkoniyatlarini yoritishdan iborat. Tadqiqotda tarixiy-pedagogik, qiyosiy va matnshunoslik tahlili metodlaridan foydalanilgan. Natijalar Abdulla Avloniyning fikr tarbiyasi haqidagi qarashlari zamonaviy rivojlantiruvchi ta'lim, tanqidiy va mustaqil fikrlash konsepsiyalari bilan uyg'un ekanligini ko'rsatadi. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy fikrlash, savol berish ko'nikmalari hamda mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatini shakllantirishda Avloniy merosidan foydalanishning aniq pedagogik yo'llari taklif etiladi.

**Kalit so'zlar:** Abdulla Avloniy, jadidchilik, fikr tarbiyasi, tafakkur, boshlang'ich ta'lim, aql-idrok, mustaqil fikrlash, "Turkiy guliston yoxud axloq", pedagogik meros, rivojlantiruvchi ta'lim.

**Abstract:** This article analyzes the concept of intellectual development in the pedagogical heritage of Abdulla Avloniy, a prominent representative of the Uzbek Enlightenment movement and Jadidism. The aim of the study is to identify Avloniy's ideas on reason, independent thinking, and intellectual education based on his work Turkiy Guliston yoxud Axloq and his other pedagogical and literary works, as well as to reveal the practical potential of applying these ideas to foster the thinking skills of primary school students within the contemporary educational process. The study employs historical-pedagogical, comparative, and textual analysis methods. The findings demonstrate that Avloniy's views on intellectual education are consistent with contemporary concepts of developmental education, critical thinking, and independent reasoning. The article proposes practical pedagogical approaches to applying Avloniy's heritage in developing logical thinking, questioning skills, and the ability to draw independent conclusions among primary school students.

**Key words:** Abdulla Avloniy, Jadidism, intellectual education, thinking, primary education, reason, independent thinking, Turkiy Guliston yoxud Axloq, pedagogical heritage, developmental education.

**Аннотация:** В данной статье анализируется проблема формирования мышления в педагогическом наследии Абдуллы Авлони – выдающегося представителя узбекского просветительского движения и джадидизма. Цель исследования заключается в выявлении идей Абдуллы Авлони, связанных с развитием интеллекта, самостоятельного мышления и воспитанием мыслительной деятельности, на основе его произведения "Туркий гулистан ёхуд ахлоқ" ("Туркестанский цветник, или Нравственность"), а также других педагогических и литературных трудов, и раскрытии практических возможностей применения этих идей в современном процессе начального образования для развития мышления учащихся. В исследовании использованы методы историко-педагогического, сравнительного и текстологического анализа. Полученные результаты свидетельствуют о том, что взгляды Абдуллы Авлони на воспитание мышления созвучны современным концепциям развивающего обучения, критического и самостоятельного мышления. В статье предложены конкретные педагогические пути использования наследия Авлони в формировании у учащихся начальных классов логического мышления, навыков постановки вопросов и способности самостоятельно делать выводы.

**Ключевые слова:** Абдулла Авлони, джадидизм, воспитание мышления, мышление, начальное образование, интеллект, самостоятельное мышление, "Туркий гулистан ёхуд ахлоқ", педагогическое наследие, развивающее обучение.



## KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda nafaqat bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, balki ularning mustaqil fikrlash, mantiqiy mulohaza yuritish va tanqidiy tafakkur qobiliyatini rivojlantirishdan iborat. Boshlang'ich ta'lim bosqichi bola shaxsining intellektual asoslari shakllanadigan eng muhim davr hisoblanadi. Shu sababli aynan ushbu bosqichda fikr tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish zarur. Bu borada o'zbek ma'rifatparvarlik harakati va jadidchilikning yirik namoyandasi Abdulla Avloniy (1878–1934) merosi katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Abdulla Avloniy XX asr boshlarida Turkistonda ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish, yangi usul maktablarini rivojlantirish hamda millat farzandlarini ilm-ma'rifat orqali uyg'otish g'oyasining faol targ'ibotchisi bo'lgan. Uning pedagogik qarashlari, ayniqsa, "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida bayon etilgan fikrlar insonning aql-idroki, fikrlash qobiliyati va mustaqil mulohaza yuritishi ma'naviy-axloqiy yetuklikning asosi ekanligini alohida ta'kidlaydi. Avloniyning fikricha, bilimni o'zlashtirish jarayoni mexanik yodlashdan iborat bo'lmasligi, balki bolaning aql-zakovati va mushohada yuritish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qilishi lozim.

Avloniy nafaqat pedagog-nazariyotchi, balki amaliyotchi murabbiy, maktab tashkilotchisi va darslik muallifi sifatida ham faoliyat yuritgan. U "Birinch muallim", "Ikkinchi muallim" kabi darsliklarni yaratishda bilimni o'quvchiga tayyor holda berish emas, balki uni mustaqil kuzatish, taqqoslash va xulosa chiqarish orqali o'zlashtirishga yo'naltirishga harakat qilgan. Bu esa Avloniyning fikr tarbiyasi haqidagi nazariy qarashlari uning amaliy pedagogik faoliyatida ham izchil aks etganidan dalolat beradi. Shu bois uning merosini o'rganish nafaqat tarixiy-nazariy, balki metodik-amaliy ahamiyatga ham ega. Mavzuning dolzarbligi shundaki, zamonaviy pedagogika fanida rivojlantiruvchi ta'lim, tanqidiy fikrlash va kompetensiyaviy yondashuv kabi konsepsiyalar faol rivojlantirilayotgan bir paytda, milliy pedagogik merosning ushbu masalalarga oid g'oyaviy asoslarini ilmiy jihatdan yoritish muhim ahamiyat kasb etadi. Avloniy merosini zamonaviy boshlang'ich ta'lim amaliyoti bilan bog'liq holda o'rganish, bir tomondan, milliy pedagogik an'analarning uzviyligini ta'minlasa, ikkinchi tomondan, bugungi o'quvchilarda fikr tarbiyasini shakllantirishning samarali usullarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi – Abdulla Avloniyning pedagogik va adabiy merosida fikr tarbiyasi masalasining qanday yoritilganini aniqlash hamda uning g'oyalaridan boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini rivojlantirishda foydalanish imkoniyatlarini asoslashdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- Avloniyning fikr tarbiyasiga oid qarashlarini manbalar asosida tahlil qilish;
- ularni zamonaviy pedagogik-psixologik konsepsiyalar bilan qiyoslash;
- boshlang'ich sinflarda tafakkurni rivojlantirish uchun Avloniy g'oyalaridan foydalanishning amaliy yo'llarini ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida Abdulla Avloniyning pedagogik va adabiy merosi, xususan, "Turkiy guliston yoxud axloq" asari, uning maktab darsliklari hamda publiksistik maqolalari tanlangan.

Tadqiqot predmeti esa ushbu merosda fikr tarbiyasi, aql-idrok va mustaqil mulohaza yuritish tushunchalarining talqini hamda ularning boshlang'ich ta'lim amaliyotiga tatbiq etilish imkoniyatlaridan iborat. Muammoning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini uyg'un holda yoritish maqolaning tuzilishini – kirish, adabiyotlar sharhi, tadqiqot metodologiyasi, natijalar va muhokama hamda xulosa qismlarini – belgilab berdi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Abdulla Avloniy merosi o'zbek pedagogikasi tarixshunosligida keng o'rganilgan mavzulardan biridir.

K. Hoshimov va S. Nishonovanning pedagogika tarixi bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida Avloniyning ta'lim-tarbiya sohasidagi xizmatlari jadidchilik harakati kontekstida yoritilgan bo'lib, unda ma'rifatparvarning yangi usul maktablarini tashkil etish, darsliklar yaratish hamda o'qituvchilar tayyorlash borasidagi faoliyati tahlil qilingan. Biroq ushbu tadqiqotlarda fikr tarbiyasi masalasi alohida tadqiqot predmeti sifatida chuqur o'rganilmagan.

I. Ziyomammedovning ilmiy ishlarida Avloniyning axloqiy tarbiya to'g'risidagi qarashlari markaziy o'rin egallaydi. Unda aql va odob birligi masalasi yoritilgan. B. Qosimovning jadidchilik adabiyoti va ma'rifatparvarlik g'oyalariga bag'ishlangan tadqiqotlarida Avloniy ijodi jadid matbuoti hamda maktab islohoti bilan bog'liq holda tahlil qilingan. Biroq mazkur ishlarda ham fikr tarbiyasi tushunchasi mustaqil tadqiqot obyekti sifatida ajratilmagan.

Zamonaviy xorijiy pedagogik-psixologik adabiyotlarda tafakkurni rivojlantirish muammosi J. Piajening intellektual rivojlanish nazariyasi, L. S. Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasi hamda B. Blum taksonomiyasi doirasida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi asosida keng yoritilgan. Ushbu nazariyalar bolalarda mustaqil fikrlash, savol berish va mulohaza yuritish ko'nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirish

zarurligini asoslaydi. Bu esa Avloniyni "aqlni ishlatmoq, fikr yuritmoq" haqidagi g'oyalari bilan mazmunan uyg'un ekanligini ko'rsatadi.

P. Fasloning tanqidiy fikrlash bo'yicha ekspertlar konsensusiga bag'ishlangan tadqiqotida tanqidiy fikrlash tahlil qilish, baholash, xulosa chiqarish va o'z-o'zini nazorat qilish kabi komponentlardan iborat murakkab kognitiv jarayon sifatida ta'riflanadi. Ushbu ta'rifni Avloniyni bolani "o'ylab ish tutishga", "oqibatini ko'zlab harakat qilishga" da'vat etuvchi pand-nasihatlar bilan qiyoslash shuni ko'rsatadiki, muallif ilmiy-akademik tilda emas, balki xalq uchun tushunarli va obrazli tilda mohiyatan yaqin g'oyalarni ilgari surgan. Bu esa Avloniy merosini zamonaviy pedagogika fani nuqtai nazaridan qayta talqin qilish mumkinligini hamda bunga ehtiyoj mavjudligini yana bir bor asoslaydi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standartlarida o'quvchilarda funksional savodxonlik va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shu bois milliy pedagogik merosni, xususan, Avloniy g'oyalarini ushbu zamonaviy talablar bilan uyg'un holda o'rganish dolzarb ilmiy-nazariy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Shuni ham ta'kidlash lozimki, o'zbek pedagogikasi tarixshunosligida Avloniy ijodi ko'pincha axloqiy tarbiya, vatanparvarlik tarbiyasi yoki maktab-ma'rifat harakati kontekstida umumiy tarzda yoritiladi. Biroq "fikr tarbiyasi" tushunchasi mustaqil ilmiy kategoriya sifatida ajratilib, uning ichki tuzilishi, boshqa tarbiya turlari bilan o'zaro aloqasi hamda zamonaviy boshlang'ich ta'lim amaliyotiga tatbiq etish mexanizmlari alohida tahlil qilinmagan.

Xorijiy tadqiqotlarda esa, aksincha, tanqidiy fikrlash va intellektual rivojlanish masalalari chuqur ishlab chiqilgan bo'lsa-da, ular Markaziy Osiyo ma'rifatparvarlik pedagogikasi konteksti bilan bog'lanmagan. Ushbu ikki yo'nalish – milliy pedagogik meros va zamonaviy pedagogik nazariya – o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash zarurati mavjud adabiyotlardagi ilmiy bo'shliqni ko'rsatadi hamda ushbu tadqiqotning asosiy gipotezasini shakllantiradi. Unga ko'ra, Avloniyni fikr tarbiyasiga oid g'oyalari zamonaviy rivojlantiruvchi ta'lim konsepsiyalari bilan mazmunan uyg'un bo'lib, ularni boshlang'ich sinf amaliyotiga tatbiq etish ilmiy va amaliy jihatdan maqsadga muvofiqdir. Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Avloniy merosidagi fikr tarbiyasi masalasi alohida va tizimli tadqiqotni talab qiladi. Bu esa mazkur maqolaning ilmiy yangiligini belgilaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tarixiy-pedagogik yondashuv asosiy metod sifatida qo'llanildi. Ushbu yondashuv Avloniy g'oyalarini o'z davrining ijtimoiy-madaniy konteksti bilan bog'liq holda tahlil qilish imkonini berdi. Manba sifatida Avloniyni "Turkiy guliston yoxud axloq" (1913) asari, uning maktab darsliklari, she'riy va publitsistik asarlari, shuningdek, jadidchilik pedagogikasiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar tahlil qilindi. Matnshunoslik tahlili metodi orqali Avloniy asarlarida aql, idrok, fikr, tafakkur va mulohaza tushunchalarining mazmuni hamda ularning qo'llanish kontekstlari aniqlandi. Qiyosiy tahlil metodi esa Avloniy g'oyalarini zamonaviy rivojlantiruvchi ta'lim va tanqidiy fikrlash konsepsiyalari bilan taqqoslash, ularning o'zaro uyg'un va farqli jihatlarini aniqlash uchun qo'llanildi. Amaliy qismda pedagogik loyihalashtirish metodidan foydalanilib, Avloniy g'oyalari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun fikr tarbiyasini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulot yo'nalishlari hamda metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot xulosalarining ishonchligini ta'minlash maqsadida bir nechta mustaqil manbalardan olingan ma'lumotlar o'zaro qiyoslandi (triangulyatsiya usuli). Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi.

*Birinchi bosqichda* Avloniyni asosiy asarlari hamda ular bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlar to'plandi va tizimlashtirildi.

*Ikkinchi bosqichda* to'plangan manbalar matnshunoslik va mazmuniy tahlil metodlari yordamida chuqur o'rganilib, fikr tarbiyasiga oid asosiy g'oyalar hamda tushunchalar ajratib olindi.

*Uchinchi bosqichda* esa aniqlangan g'oyalar zamonaviy pedagogik-psixologik nazariyalar bilan qiyoslanib, boshlang'ich ta'lim amaliyoti uchun aniq metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Ushbu uch bosqichli yondashuv tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi hamda amaliy qo'llash imkoniyatini ta'minlashga xizmat qildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

### 1. Avloniy pedagogik merosida fikr tarbiyasi g'oyasining mazmuni

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Abdulla Avloniy tarbiya jarayonini uch asosiy yo'nalish – jismoniy, aqliy va axloqiy tarbiya – birligida ko'radi. Ularning ichida aqliy tarbiyaga, ya'ni fikr va idrokni rivojlantirishga alohida ahamiyat beradi. Avloniy ta'kidlashicha, inson boshqa jonzoatlardan aynan aql-idroki va fikrlash qobiliyati bilan ajralib turadi hamda bu qobiliyatni tarbiya orqali rivojlantirish zarur. Uning asarlarida "aqli bo'lmoq", "fikr yuritmoq", "o'ylab ish tutmoq" kabi iboralar tez-tez uchraydi. Bu esa muallif uchun mustaqil fikrlash ko'nikmasining tarbiyaviy ahamiyati naqadar yuqori bo'lganini ko'rsatadi.



Avloniy fikr tarbiyasini shunchaki bilim to'plash bilan tenglashtirmaydi. Uning qarashicha, ko'p bilimni yod olgan, ammo mustaqil mulohaza yurita olmaydigan kishi haqiqiy ma'rifatli inson hisoblanmaydi. Mazkur g'oya zamonaviy ta'limdagi "bilim uchun bilim" emas, balki "fikrlash uchun bilim" tamoyiliga to'liq mos keladi. Ya'ni bilim mustaqil tafakkurni rivojlantirish vositasi sifatida qaraladi. Manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, Avloniy fikr tarbiyasini yagona jarayon sifatida emas, balki bosqichma-bosqich rivojlanadigan hodisa sifatida talqin qilgan. Dastlab bola kuzatish va idrok etish orqali dunyoni anglaydi, keyinchalik taqqoslash va farqlash ko'nikmalarini egallaydi, so'ng esa sabab-oqibat munosabatlarini tushunib, mustaqil xulosa chiqarish darajasiga yetadi. Ushbu izchillik zamonaviy kognitiv psixologiyada tavsiflangan fikrlash bosqichlari – idrok, taqqoslash, tahlil, sintez va xulosa chiqarish – bilan mazmunan uyg'unlashadi. Garchi Avloniy ushbu tushunchalarni ilmiy terminologiya asosida emas, balki ommabop va tarbiyaviy uslubda bayon etgan bo'lsa-da, ularning mohiyati zamonaviy ilmiy qarashlarga yaqin turadi.

## 2. Fikr tarbiyasi va axloqiy tarbiyaning o'zaro bog'liqligi

Avloniy pedagogikasining o'ziga xos jihati shundaki, unda fikr tarbiyasi axloqiy tarbiyadan ajralgan holda emas, balki u bilan uzviy bog'liq tarzda talqin etiladi. Muallifning fikricha, to'g'ri fikrlay oladigan inson to'g'ri xulq-atvorga ham ega bo'ladi. Chunki har qanday harakatdan oldin uning oqibatini o'ylab ko'rish zarur. Shu tariqa Avloniy "aqli" va "odobi" tushunchalarini o'zaro bog'lab, intellektual hamda axloqiy tarbiyaning uzviy birligini asoslaydi. Mazkur yondashuv bugungi kompetensiyaviy ta'lim modelidagi fikrlash ko'nikmalari va ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar o'rtasidagi bog'liqlik g'oyasiga hamohangdir.

## 3. Avloniy g'oyalarining zamonaviy rivojlantiruvchi ta'lim konsepsiyalari bilan uyg'unligi

Avloniyning bolani faol izlanuvchi, savol beruvchi va mustaqil xulosa chiqaruvchi shaxs sifatida tarbiyalash haqidagi g'oyalari L. S. Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi hamda zamonaviy tanqidiy fikrlash metodikasi bilan mazmunan uyg'unlashadi. Har ikkala yondashuvda ham bola bilimni tayyor holda qabul qiluvchi passiv obyekt emas, balki o'qituvchi rahbarligida bilimni mustaqil kashf etuvchi faol subyekt sifatida qaraladi. Ushbu uyg'unlik Avloniy merosining nafaqat tarixiy, balki zamonaviy ilmiy-amaliy ahamiyatini ham tasdiqlaydi.

## 4. Boshlang'ich sinflarda Avloniy g'oyalaridan foydalanishning amaliy yo'llari

Tadqiqot natijalari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida fikr tarbiyasini rivojlantirish uchun quyidagi amaliy yo'nalishlar taklif etiladi. Birinchidan, "Turkiy guliston yoxud axloq" asaridagi qissa va hikoyatlar asosida savol-javob, muhokama hamda roli o'yinlarni tashkil etish orqali o'quvchilarda mustaqil mulohaza yuritish ko'nikmalarini shakllantirish. Ikkinchidan, Avloniy uslubidagi qisqa hikmatli so'zlar va matallar asosida o'quvchilarni sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash hamda o'z fikrini asoslab berishga o'rgatuvchi topshiriqlar tizimini joriy etish. Uchinchidan, "Nima uchun?", "Agar ... bo'lsa-chi?" kabi muammoli savollar orqali tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi metodlarni qo'llash. To'rtinchidan, Avloniy merosidagi vatanparvarlik, mehnatsevarlik va halollik g'oyalarini fikr tarbiyasi bilan uyg'unlashtirgan integrallashgan darslarni ishlab chiqish. Shuningdek, tadqiqot davomida aniqlandiki, Avloniy g'oyalarini zamonaviy darslik va metodik qo'llanmalarga integratsiya qilish jarayonida uning tili va uslubini bolalarning yosh xususiyatlariga moslashtirish, matnlarni soddalashtirish hamda vizual materiallar bilan boyitilgan holda taqdim etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'quvchilarning nafaqat bilim olishiga, balki milliy pedagogik meros orqali fikrlash madaniyatini o'zlashtirishiga ham xizmat qiladi.

## 5. Fikr tarbiyasini rivojlantirishda pedagog shaxsining o'rni

Avloniy asarlari tahlili shuni ko'rsatadiki, muallif fikr tarbiyasi samaradorligini ko'p jihatdan o'qituvchi shaxsi va uning pedagogik mahoratiga bog'liq deb hisoblagan. Uning fikricha, o'qituvchi o'zi mustaqil fikrlay olmasa, o'quvchida ham bu qobiliyatni rivojlantira olmaydi. Shu sababli Avloniy o'z davrida o'qituvchilarni tayyorlash va ularning kasbiy bilim darajasini oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratgan. Mazkur yondashuv zamonaviy pedagogikadagi "refleksiv o'qituvchi" konsepsiyasi bilan hamohang bo'lib, o'qituvchining tanqidiy va ijodiy fikrlay olishi o'quvchilarda ham ushbu ko'nikmalarni shakllantirishning muhim sharti ekanligini tasdiqlaydi. Demak, boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlariga Avloniy pedagogik merosini, xususan, uning fikr tarbiyasi haqidagi qarashlarini kiritish maqsadga muvofiqdir.

## 6. Natijalarning umumlashtirilgan tahlili

Yuqoridagi tahlillarni umumlashtirib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

*Birinchidan*, Avloniy fikr tarbiyasini insonning eng yuksak fazilatlaridan biri va tarbiyaning markaziy vazifasi sifatida talqin etadi.

*Ikkinchidan*, uning qarashlarida fikr tarbiyasi axloqiy tarbiya bilan uzviy bog'liq holda amalga oshiriladi.

*Uchinchidan*, Avloniy g'oyalari zamonaviy rivojlantiruvchi ta'lim va tanqidiy fikrlash nazariyalari bilan mazmunan uyg'un bo'lib, ularni ilmiy jihatdan boyitadi.

*To'rtinchidan*, ushbu g'oyalarni boshlang'ich ta'lim amaliyotiga tatbiq etish uchun muhokama, rolli o'yinlar, muammoli savollar va integrallashgan darslar kabi aniq metodik vositalardan foydalanish mumkin.

*Beshinchidan*, ushbu jarayonning muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi va pedagogik mahoratiga bog'liq.

Shunday qilib, mazkur xulosalar tadqiqot boshida belgilangan maqsad va vazifalarga to'liq javob beradi hamda milliy pedagogik meros bilan zamonaviy ta'lim amaliyoti o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ilmiy-amaliy jihatdan asoslaydi.

## XULOSA

O'tkazilgan tadqiqot natijalari Abdulla Avloniy pedagogik merosida fikr tarbiyasi masalasi markaziy o'rinlardan birini egallashini ko'rsatdi. Muallif insonning aql-idroki, mustaqil fikrlash va mulohaza yuritish qobiliyatini axloqiy yetuklikning asosi sifatida talqin etadi hamda ta'lim jarayonini mexanik yodlashdan ko'ra tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirish zarurligini ta'kidlaydi. Avloniyning ushbu g'oyalari zamonaviy rivojlantiruvchi ta'lim, tanqidiy fikrlash va kompetensiyaviy yondashuv konsepsiyalari bilan mazmunan uyg'un bo'lib, ularni boshlang'ich ta'lim amaliyotiga tatbiq etish milliy pedagogik meros bilan zamonaviy pedagogik-psixologik bilimlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlaydi. Taklif etilgan amaliy yo'nalishlar – muhokama va rolli o'yinlar, sabab-oqibat munosabatlariga oid topshiriqlar, muammoli savollar hamda integrallashgan darslar – boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda Avloniy g'oyalarini boshqa jadid ma'rifatparvarlari – Behbudiy, Fitrat va Munavvar qori – merosi bilan qiyosiy tahlil qilish, shuningdek, ushbu g'oyalar asosida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalarni boshlang'ich sinflarda amaliy sinovdan o'tkazish tadqiqot doirasini kengaytirishi hamda uning ilmiy va amaliy ahamiyatini yanada oshirishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Avloniy merosi nafaqat o'tmishning bebaho pedagogik merosi, balki bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan pedagogik g'oyalar manbaidir. Uni ilmiy asosda o'rganish va boshlang'ich ta'lim amaliyotiga tatbiq etish yosh avlodda mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning muhim omillaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, bu milliy pedagogik an'analar bilan zamonaviy ta'lim tizimi o'rtasidagi uzviylikni ta'minlashga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 250 b.
2. Avloniy A. Tanlangan asarlar. Ikki jildlik. 1-jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 1998.
3. Avloniy A. Tanlangan asarlar. Ikki jildlik. 2-jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 1998.
4. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.
5. Hoshimov K., Nazarov O., Ochilov M. Pedagogika tarixi (darslik). – Toshkent: Fan va texnologiya, 2007.
6. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002.
7. Qosimov B. Jadidchilik tarixidan lavhalar. – Toshkent: Fan, 1991.
8. Ziyomuhammedov I. Abdulla Avloniyning pedagogik faoliyati. – Toshkent: Fan, 1971.
9. Ergashev I. O'zbekiston pedagogikasi tarixi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.
10. Munirov Q., Munirova L. O'zbekiston tarixi manbashunosligi. – Toshkent: O'qituvchi, 2001.
11. Xoliqberdiyev N. Jadid pedagogikasi va milliy ta'lim. – Toshkent: Fan, 2010.
12. Vygotskiy L. S. Myshleniye i rech'. – Moskva: Labirint, 1999.
13. Piaget J. The Psychology of Intelligence. – London: Routledge, 2001.
14. Bloom B. S. Taxonomy of Educational Objectives. – New York: Longman, 1984.
15. Facione P. A. Critical Thinking: A Statement of Expert Consensus. – Millbrae, CA: The California Academic Press, 1990.
16. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2004.
17. To'ychiyeva G. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy tafakkurni rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2015.
18. Xo'jayev N., Egamov X. Milliy pedagogika: tarix va zamonaviylik. – Toshkent: Yangi nashr, 2018.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №5(5)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.